

Dastlabki ma'lumotlar

## 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida Surxondaryo viloyati xizmatlar sohasining rivojlanishi

Hozirgi kunda kuchayib borayotgan global tendentsiyalar va taqdim etilayotgan xizmatlarning xilmalilligi xizmatlar sohasini iqtisodiyotning mustaqil sektoriga, ya'ni jamiyatimizni "qon aylanish tizimi" sifatida to'ldiruvchi sektorga aylantirdi. Xizmatlar sohasini muhim ahamiyatga ega bo'lgan iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bilan taqqoslash mumkin va funktional jihatdan u bozor iqtisodiyotini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratadigan tarmoqlar va infratuzilma ob'ektlari kabi rol o'ynaydi.

### 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



### Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

## Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 5645,4 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 635,4 mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,3 % ni tashkil etdi.



**Xizmatlar** – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayriboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faolivatinino natiiasi hisoblanadi.

## Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

*Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumдорligи va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari  
(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>5 645,4</b>	<b>102,3</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	279,9	108,2
Moliyaviy xizmatlar	1 129,3	129,1
Transport xizmatlari	914,1	102,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	871,8	101,0
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	163,2	85,3
Savdo xizmatlari	2 187,3	98,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	145,5	84,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	185,1	119,1
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	65,8	97,0
Ijara xizmatlari	118,7	80,4
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	140,9	88,7
Shaxsiy xizmatlari	147,3	90,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	55,1	69,8
Boshqa xizmatlar	113,2	84,2

**Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi**

## Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020- yilning yanvar- sentabr oylarida ularning ulushi 38,7 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlar (20,0 %), transport xizmatlari (16,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (4,9 %) qayd etildi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)




Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'lgan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,0 % ni tashkil etdi.

Yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (29,1 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (19,1 %), va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (8,2 %) va transport xizmatlari (2,1 %) da qayd etildi. Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda.

## Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi




Me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmi sezilarli darajada (49,6 % ga) pasayishi qayd etildi. Shu bilan birga, moliyaviy xizmatlar xizmatlar (37,9 % ga), ijara xizmatlari (24,6 % ga), yashash va ovqatlanish xizmatlari (24,4 % ga), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (17,6 % ga) da pasayish kuzatildi.

**Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi**

## Dastlabki ma'lumotlar

Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida yo'lovchilarni tashish katta ulushga ega.

### Transport xizmatlarining tashish turlari bo'yicha tarkibi (2020-yil yanvar-sentabr oylarida)



2020- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi 67,2 % ga yetdi.

Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmida yuk tashish xizmatlari ulushi 32,8 % ni tashkil etdi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rinni tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

**Savdo** – bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.




## Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

## Dastlabki ma'lumotlar

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi 38,7 % ni tashkil etib, bu 2187,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

### Savdo xizmatlari tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

**Savdo xizmatlari - 100,0 %**



Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtadan uch qismiga, aniqrog'i 83,4 % iga to'g'ri keladi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllarni savdosidan tashqari) 12,8 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosini bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 3,8 % ni tashkil etdi.

**Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi**

## Moliyaviy xizmatlar (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

**Moliyaviy xizmatlar hajmi 1129,3 mlrd. so'mni - tashkil etdi.**


**Taqqoslash uchun:** 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 800,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi.



**Ularning umumiyligi hajmidagi ulushi 20,0 % ni tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida ularni ulushi 16,0 % ni tashkil etdi.

**O'tgan yilning shu davriga nisbatan hajmni 329,3 mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.**



**Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 29,1 % ni tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida ularni o'sish sur'ati 167,0 % ga yetgan.

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

### Dastlabki ma'lumotlar

Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratish uchun innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan raqamli banklar va ularning bo'linmalarining faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda

### Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

Moliyaviy xizmatlar umumiylajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 95,3 % ni tashkil etadi.

Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 3,7 % oralig'ida qayd etildi.


Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiylajmaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 1,0 % ni tashkil etadi.



### Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)



2020- yilning yanvar-sentabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 279,9 mlrd. so'm darajasida belgilandi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati 108,2 % ga etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmdagi ulushi 4,9 % ni tashkil etdi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)



Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

## Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlash-tirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekomunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va bosh-qalar) egallab, 96,1 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushida kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 1,2 %, boshqa aloqa xizmatlari - 0,3 %, axborot sohasidagi xizmatlar - 0,7 % shuningdek, noshirlik xizmatlari - 1,7 % dan tashkil etdi.

Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.

### Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 185,1 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi 3,3 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 119,1 % ni tashkil etdi.



### Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi


Dastlabki ma'lumotlar

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 85,3 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 163,2 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi atigi 2,9 % ni tashkil etdi.




2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan turar joy va umumiyligi ovqatlanish xizmatlari hajmi 14,1 mlrd. so'mga kamaydi.

## Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar

- oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiylajmiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 92,8 % bilan ustunlik qiladi.

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 7,2 % ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar

## Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da	
		2019- y.	2018- y.

<b>Surxondaryo viloyati *</b>	<b>5 645,4</b>	<b>102,3</b>	<b>111,1</b>
Termiz sh	2 587,4	103,3	113,8
tumanlar:			
Oltinsoy	152,6	100,7	108,1
Angor	136,4	100,6	107,3
Bandixon	35,8	101,0	0,0
Boysun	120,1	101,8	106,5
Muzrabot	190,9	100,9	107,3
Denov	1 000,0	102,4	111,3
Jarqo'rg'on	189,3	101,0	107,3
Qumqo'rg'on	204,6	101,6	108,1
Qiziriq	143,6	100,9	108,3
Sariosiyo	221,5	100,7	107,6
Termiz	132,9	100,3	107,5
Uzun	155,2	101,8	108,5
Sherobod	173,1	100,4	110,1
Sho'rchi	202,0	101,0	106,3

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Termiz sh (2 587,4 mlrd. so'm) va Denov (1 000,0 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

**Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi**

## Dastlabki ma'lumotlar

Ma'lumki, zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda.

### Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020-yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2131,8 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,1 % ni tashkil etdi.


Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi - 2 131,8 ming so'm

O'sish sur'ati, 2019-yil yanvar-sentabr oylari holatiga ko'ra, % da - 100,1 %

Hajmnинг o'sishi, 2019-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, - 198,3 ming so'mga

Dastlabki ma'lumotlar

## Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi, ming so'm (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)



Ushbu xizmatlar hajmi ko'rsatkichi hududlar o'rtasida Termiz shahrida 14 311,1 ming so'm-dan Bandixon tumanida 473,6 ming so'mgacha oralig'ida bo'ladi.

Ushbu tumanda aholi jon boshiga xizmatlar hajmi ko'rsatkichi nisbatan pastligi bu hududda aholi sonining yuqori ko'rsatkichlariga bog'liqligidir.

**Taqqoslash uchun:** Boysun tumanida aholi soni (2020 yilning 1-oktabr holatiga ko'ra 116,2 ming kishini tashkil etdi) uncha ko'p bo'limasada, biroq aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi nisbatan yuqori. Ko'rib chiqilayotgan davrda u 1033,3 ming so'mni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli faoliyatlarni o'z ichiga oladi.

Xizmatlar sohasida iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

## 2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Xizmatlar sohasida faoliyat  
ko'rsatayotgan korxona va  
tashkilotlar soni - 14939 birlikda

Ularning umumiyligi sonidagi  
ulushi - 60,9 %

O'tgan yilning shu davriga  
nisbatan o'sish  
sur'atlari - 121,2 %



## 2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020- yilning  
1- oktabr holatiga  
ko'ra, xizmatlar  
sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona  
va tashkilotlarning  
ulushi - 60,9 %,  
sanoat - 16,0 %,  
qurilish - 10,0 % ga  
yetdi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasi 13,1 % ga to'g'ri keldi.

Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

## 2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning yuqori ulushni (44,6 %) egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 10,4 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 5,4 % ga yetdi.



Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 1,9 % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 2,4 % ni tashkil etdi.

**Ma'lumot uchun:** 2019- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 12322,0 mingta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo xizmatlari – 39,0 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 10,5 %, tashish va saqlash - 6,1 %, axborot va aloqa - 1,9 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 2,6 %, hamda boshqa turdag'i xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar – 39,9 % ni tashkil etgan.

Kuzatilayotgan davrning o'tgan yilga nisbatan savdo faoliyati sohasidagi yuqori o'sishi – 38,9 % ekanligi aniqlandi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 1,9 mingtaga ko'paydi va 6,7 mingtaga yetdi.



Shuningdek, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq faoliyatda ham o'sish kuzatildi - 19,5 %. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 0,3 mingtaga ko'paydi va 1,6 mingtani tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar

## 2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligi sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi 54,2 % ga to'g'ri keladi.

**Taqqoslash uchun:** 2019- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, ularning ulushi 59,0 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning o'sishi, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligi sonining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

## 2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2535 taga ko'paydi.

Natijada, ularning soni 11238 tani tashkil etdi va o'sishi esa 29,1 % ga oshdi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiyligi sonida xizmatlar sohasida band bo'lganlarning ulushi 54,2 % ga yetdi.

**Taqqoslash uchun:** o'tgan yilning shu davrida xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik korxona va tashkilotlar sonining ulushi 59,0 % ekvivalentida qayd etildi.

Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



## SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

*Dastlabki ma'lumotlar*

Kelajakda xizmatlar sohasini har tomonlama rivojlantirish, samarali bandlikni ta'minlash va aholi turmush darajasini oshirishning dolzarb masalasidir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining munosib hayot sifatini ta'minlash ko'rsatkichidir, chunki xizmatlar bozori rivojlanishiga ta'sir qiluvchi hal qiluvchi omil, aholining real daromadlari va turmush darajasining o'sishi hisoblanadi.

**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi**

**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**

Tel: (76) 225-65-91

**Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi**